

5. Ministry of Innovative Development of the Republic of Uzbekistan. (2022). Strategies for Innovative Economy and Technological Modernization. Tashkent.

6. The Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. (2023). Regional Investment and Cluster Development Programs. Tashkent.

7. World Bank. (2023). Uzbekistan Economic Update: Navigating the Global Headwinds. Washington, D.C.: World Bank.

8. International Monetary Fund (IMF). (2023). Uzbekistan: 2023 Article IV Consultation-Press Release; Staff Report; and Statement by the Executive Director for Uzbekistan. Washington, D.C.: IMF.

9. Asian Development Bank (ADB). (2023). Asian Development Outlook 2023: Uzbekistan. Manila: ADB.

QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSIYA JALB QILISH JARAYONIDA INFLYATSIYA DARAJASINING AHAMIYATI

Salomova Zarina Murodovna

*"Toshkent Irrigatsiya va Qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti"*

*Milliy tadqiqod universiteti
3-bosqich tayanch doktorant*

Annotatsiya: Qishloq xo'jaligiga investitsiya jalb qilish jarayonida inflyatsiya darajasi muhim iqtisodiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada inflyatsiyaning investitsion muhitga ta'siri, qishloq xo'jaligidagi kapital qo'yilmalar samaradorligiga ta'siri va investorlar uchun yuzaga keladigan xavf-xatarlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot drayveri, ishbilarmonlik muhiti, investitsiyalar hajmi, amortizatsiya siyosati, mahalliy byudjetlar.

Kirish

Ma'lumki, bugungi kunda yurtimizda har sohani modernizatsiyalash va sanoatni jadal rivojlantirish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulkchilikning huquqlarini himoya qilishni yanada kuchaytirish, viloyat, shahar va tumanlarni kompleks va muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, investitsiyalarni yaxshilash yo'li bilan mamlakat iqtisodiyoti va mintaqalariga xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda asosiy e'tibor investitsiyalarga qaratilmoqda va hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning eng samarali va maqbul yo'li ham investitsiyalar hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Investitsiya haqida quyidagi fikrlarni bildirib o'tgandilar: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri,

o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirdorlik jadal rivojlanadi[1]".

Asosiy qism

Hozirgi kunda respublikamizda investitsion jozibadorlikni oshirish, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish hamda faol investitsiya siyosatini yuritish maqsadida juda ko'plab islohatlar o'tkazilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish, ishsizlikni kamaytirish aholining real daromadlarini oshirish hisoblandi. Hozirgi kunda har qanday mamlakatni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirshning asosi sifatida investitsiyalarga e'tibor qaratilmoqda. Chunki jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, qaysi davlat iqtisodiyotiga ko'proq investitsiya jalb qilgan bo'lsa va qulay investitsion muhit yaratgan bo'lsa, o'sha davlat iqtisodiyotininng jadal o'sishiga erishmoqda. Investitsiya iqtisodiy kategoriya sifatida juda keng ma'noga egadir. Investitsiyalar tushunchasi (lotincha "investio" so'zidan olingan bo'lib, "kiyinaman" degan ma'noni anglatadi) amalda har qanday lug'atda mamlakat ichkarisida va xorijda iqtisodiyot tarmoqlariga kapital qo'yish sifatida talqin qilinadi[2].

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi bevosita investitsiyalar hajmi va samaradorligiga bog'liq. Shu jihatdan, inflyatsiya darjasini investitsiya jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Boshqa sohalar kabi qishloq xo'jaligining samarali va barqaror rivojlanishining zarur sharti ularni yetarlicha investitsiyalashdir.

Agrar siyosatning muhim vazifasi qishloq xo'jaliklarini investitsiyalash darajasini oshirish uchun qulay sharoit yaratishdan iborat. Davlat investitsion siyosatining asosiy tamoyillari zamonaviy bosqichda mavjud foiz stavkalarining pasayishi iqtisodiyotning real sektoridagi investitsiyalarning mos keluvchi samaradorligi darajasigacha pasayishi kerak: mavjud soliq tizimini soddalashtirishdek, amortizatsiya siyosatini takomillashtirish; tashqi va ichki investorlarning bevosita investitsiyalarini rag'batlantirish maqsadida investitsion risklarni pasaytirish uchun tashkiliy huquqiy nuqtai nazarlarni shakllantirish; byudjet investitsion resurslarini tanlov asosida joylashtirishdan foydalanish samaradorligini oshirish.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan kapital qo'yilmalari manbalari va usullari ham o'zgaradi. Hozirgi zamon bosqichida investitsiyalar qo'yidagicha moliyalashtiriladi:

- xususiy moliyaviy resurslar va investorlarning xo'jalik ichidagi rezervlari (daromad va amortizatsiya ajratmalari; fuqarolar va yuridik shaxslarning jamg'armalari va omonatlari, sug'urta idoralari tomonidan tabiiy ofatlar, avariylar va boshqalardagi yo'qotishlarni qoplash ko'rinishidagi to'lov mablag'lari va boshqa);

- investorlarning qarz ko'rinishidagi moliyaviy mablag'lari (bank va byudjet kreditlari, obligatsiya zayomlari);

- jalb qilingan moliyaviy mablag'lar (mehnat jamoalari a'zolari fuqarolar, yuridik shaxslarning aktsiya sotishdan olgan mablag'lari, pay va boshqa to'lovlari;
- davlat, mahalliy byudjetlar va byudjetdan tashqari fondlardan tashkil topishi.

Bozor iqtisodi sharoitida qishloq xo'jaligiga kapital qo'yishning asosiy manbasi – xususiy mablag': daromad va amortizatsiya ajratmalari hisoblanadi. Qoidaga ko'ra, amortizatsiya ajratmalari asosiy vositalarning takror ishlab chiqarishini, sodda daromad esa kengaytirilgan holda ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi tarmoqda mavjud bo'lgan ishlab chiqarish vositalari oqilona tarzda takror ishlab chiqarilishini talab etadi[3]. Bu jarayon ishlab chiqarish vositalarini sotib olish, ta'mirlash, qurish, innovatsion hamda ijtimoiy munosabatlar yig'indisidan tashkil topadi. Inflyatsiya – bu tovar va xizmatlar narxlarining umumiy darajada oshishi bo'lib, uning qishloq xo'jaligidagi investitsiya muhitiga ta'siri quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Kapital qo'yilmalarining real qiymati kamayishi: Agar inflyatsiya darajasi yuqori bo'lsa, investitsiyalarning haqiqiy qiymati pasayadi va investorlarning qishloq xo'jaligiga qiziqishi susayadi.

- Foiz stavkalarining o'zgarishi: Markaziy bank inflyatsiyani jilovlash uchun foiz stavkalarini oshirishi mumkin, bu esa kredit olish xarajatlarini oshiradi va qishloq xo'jaligi investorlarining kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatini kamaytiradi.

- Ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi: Inflyatsiya natijasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish vositalari (o'g'it, yoqilg'i, texnika) qimmatlashadi va bu investitsiya loyihamalarining samaradorligini pasaytirishi mumkin. Inflyatsiyaning past va barqaror darajasi investorlar uchun qulay muhit yaratadi, chunki narxlarning barqarorligi kelajakdagi foydani aniqroq prognoz qilish imkonini beradi. Nomutanosib va o'zgaruvchan inflyatsiya esa investorlarni xavotirga soladi va uzoq muddatli investitsiyalar hajmini qisqartiradi. Inflyatsiyani nazorat qilish va investitsiyalarni rag'batlantirish choralari. Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishda quyidagi choralar muhim ahamiyat kasb etadi:

- Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash: Hukumat tomonidan inflyatsiyani nazorat qilish siyosati olib borilishi kerak.

- Preferensial kreditlar va subsidiyalar taqdim etish: Qishloq xo'jaligi subyektlariga past foizli kreditlar va subsidiyalar ajratish orqali investitsiya faolligini oshirish mumkin.

- Narxlar barqarorligini ta'minlash: Ishlab chiqaruvchilar uchun muhim bo'lgan mahsulotlar narxini barqaror ushlab turish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

Qishloq xo'jaligiga jalb etilayotgan investitsiyalarni boshqa tarmoqlar bilan taqqoslaganda ularning salmog'i past darajani tashkil etadi. Shuni inobatga olgan mamlakatimiz hukumati tomonidan mazkur tarmoqqa jalb etiladigan investitsiyalar hajmini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda[4]. Bunda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchilarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, issiqxonalar tashkil

etish, sug'orishning zamonaviy tejamkor usullarini joriy etish, qishloqlarning qiyofasini zamonaviylashtirish, qishloq infratuzilmasini rivojlantirish va boshqa shu kabi maqsadlarga katta miqdordagi mablag'lar sarflanmoqda va kelgusida ham bu jarayon davom etadi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalgilish jarayonida inflyatsiya darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Inflyatsiya qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish xarajatlariga, investitsiyalar rentabelligiga va umumiyligiqtisodiy barqarorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Inflyatsiya darajasining yuqori bo'lishi investitsiyalarni jalgilishda muammolarni keltirib chiqarishi, ishlab chiqarish xarajatlarini oshirishi va foyda marjalarini kamaytirishi mumkin. Buning natijasida investorlar qishloq xo'jaligiga sarmoya kiritishda ehtiyyotkorlik bilan yondashadilar yoki bu sohadan butunlay voz kechishlari mumkin. Shu bilan birga, past va barqaror inflyatsiya darajasi investitsion muhitni yaxshilaydi, uzoq muddatli investitsiyalarni rag'batlantiradi va qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

Investitsiyalar samaradorligini ta'minlash uchun hukumat tomonidan inflyatsiyani nazorat qilish mexanizmlarini yo'lga qo'yish, qishloq xo'jaligi uchun preferensial kreditlar ajratish, ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Kelajakda qishloq xo'jaligidagi investitsion faollikni oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun makroiqtisodiy siyosatning izchil olib borilishi, narxlar barqarorligini ta'minlash va investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish muhim vazifa hisoblanadi. Inflyatsiya darajasining barqarorligi nafaqat investorlar, balki qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar va fermer xo'jaliklari uchun ham ijobjiy natijalar keltiradi. Umuman olganda, qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalgilish jarayonida inflyatsiya darajasini nazorat qilish iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri bo'lib, bu sohaning barqaror o'sishini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi./ Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr.
2. Советский энциклопедический словарь. – М.: «Советская Энциклопедия», 1979.
3. Mushnykov O. O. The mechanism of resistance management innovation and investment development engineering enterprises // 2014
4. <https://www.researchgate.net/publication/354149755> O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish yo'llari